

**DISFUNKSIONAL OILALARDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI
IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO‘LLAB – QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

Nurullaeva Sarvinov Murodovna – student

Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

3892540@mail.ru

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЕТЕЙ
МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ИЗ ДИСФУНКЦИОНАЛЬНЫХ СЕМЕЙ**

Нуруллаева Сарвинов Муродовна – студент

Курбаниязова Замира Калбаевна – доктор педагогических наук (DSc), профессор

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**IMPROVING THE SYSTEM OF SOCIAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT
FOR PRIMARY SCHOOL-AGE CHILDREN FROM DYSFUNCTIONAL FAMILIES**

Nurullaeva Sarvinov Murodovna – talaba

Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: disfunktsional oila, ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, kichik maktab yoshi, bolalar rivojlanishi, ta‘lim tizimi, individual yordam, maktab-oila hamkorligi.

Rezyume. Ushbu maqola disfunktsional oilalardagi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Unda bolalar rivojiga ta‘sir, mavjud mexanizmlar holati va xalqaro tajriba tahlil qilinadi. Tadqiqot asosida tizimni rivojlantirish bo‘yicha amaliy va metodologik tavsiyalar beriladi. Oila, maktab va ijtimoiy institutlar hamkorligini kuchaytirish, erta aniqlash va individual yordamni joriy etish zarurligi asoslanadi. Natijalar ilmiy va amaliy faoliyat uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ключевые слова: дисфункциональная семья, социально-педагогическая поддержка, младший школьный возраст, развитие детей, система образования, индивидуальная помощь, взаимодействие семьи и школы.

Резюме. Данная статья посвящена совершенствованию системы социально-педагогической поддержки учащихся младшего школьного возраста из дисфункциональных семей. В статье анализируется влияние дисфункциональной семейной среды на развитие детей, состояние существующих механизмов и международный опыт. На основе проведённого исследования представлены практические и методологические рекомендации по развитию данной системы. Обоснована необходимость усиления сотрудничества семьи, школы и социальных институтов, раннего выявления и внедрения индивидуальной помощи. Полученные результаты служат важной основой для научной и практической деятельности.

Key words: dysfunctional family, socio-pedagogical support, primary school age, child development, education system, individualized support, family-school cooperation.

Summary. This article is devoted to improving the system of socio-pedagogical support for primary school students from dysfunctional families. It analyzes the impact of the family environment on children’s development, the current state of existing support mechanisms, and international experience. Based on the study, practical and methodological recommendations for the development of the system are proposed. The necessity of strengthening cooperation between the family, school, and social institutions, early identification, and the implementation of individualized support is substantiated. The findings provide an important basis for scientific and practical activities.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda oila instituti bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq, bugungi globallashtirish, raqamlashtirish, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va madaniy omillar ta‘siri ostida ayrim oilalar disfunktsional holatga tushib qolishi mumkin. Bunday oilaviy muhit bolalarning jismoniy, ma‘naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli ta‘lim olishiga hamda jamiyatga va ijtimoiy hayotga moslashuv jarayonlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi tabii. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bu kabi ta‘sirlarga nisbatan sezgir bo‘lib, mazkur davr bolaning shaxsiy fazilatlarini, xulq-atvori va o‘quv motivlarining shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, disfunktsional oilalardagi bolalarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosati har bir bolaning to‘laqonli rivojlanishini ta‘minlashni maqsad qilgan. Ushbu jarayonda disfunktsional oilalardagi bolalarga o‘z vaqtida va samarali yordam ko‘rsatish jamiyat oldida turgan muhim vazifalarning biri hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida disfunktsional oilalardagi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimining nazariy asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish va bu muammoning ijobiy echimini topishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni talab etadi. Mazkur ishlarni eng avvalo disfunktsional oilalar – bu qanday oilalar, ularning turlari va bu kabi oila muhitidaning bolalarga bo‘lgan ta‘siri qanday darajada bo‘lishi mumkin, bunda ta‘sirdagi bolalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari nimalardan iborat bo‘lishi mumkin?, – kabi savollar jamiyatimizning asosini tashkil etadigan oila institutarining

bola tarbiyasi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Disfunktsional oilalar muammosi psixolog, pedagog va sotsiolog olimlarning e'tiborini tortgan muammolarning biri hisoblanadi. Nazariy manbalarda **disfunktsional oilalar** – bu eng avvalo oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar buzilgan, oilaning asosiy funksiyalari to'liq bajarilmaydigan yoki salbiy xarakterga ega bo'lgan oilalar hisoblanadi. Masalan, I.Yu.Shilov bu borada o'zining ilmiy izlanishlarini olib borgan olimlarning biri bo'lib, u oilalardagi reproduktiv, tarbiyaviy, iqtisodiy, hissiy va ijtimoiy funksiyalarning izdan chiqishi oilaviy muhitning nosog'lomlashuviga olib keladi, – degan fikrni ilgari surgan [7]. Bunday sharoitda surunkali mojarolar, zo'ravonlik, qaramlik, bola tarbiyasiga bo'lgan e'tiborsizlik holatlari kuzatilib, ular bolalarda ruhiy travmalar, xulq-atvordagi og'ishlar va o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar ushbu salbiy omillarga ayniqsa sezgir bo'lib, bu kabi holatlar ularning ijtimoiy moslashuviga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Yurtimizda bolalarning huquq va manfaatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1], "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni [2] singari Qonun va boshqa da Qonun osti hujjatlar asosida himoyalangan va kafolatlangan. Ayniqsa, disfunktsional oilalardagi bolalarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash borasida so'nggi yillarda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [4], "2026-2030-yillarga mo'ljallangan bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [3] farmonlari, shuningdek, maxsus ta'lim va ijtimoiy muassasalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shunga qaramasdan mavjud tizimda disfunktsional oilalarni erta aniqlash, oila muhitini sog'lomlashtirish va profilaktika mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, ta'lim mazkur masalani ijobiy hal etishga doir tashkilotlariaro hamkorlik ishlarining sustligi hamda oila bilan ishlashning zamonaviy modellardan foydalanish darajasining pastligi singari holatlarning uchrashi bu muammoni yanada chuqurroq o'rganish, bu kabi oilalar bilan ishlashning ilmiy asoslangan mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur masalaning dolzarbligi va zaruriati bu borada xalqaro tajribalarni tahlil qilishga undadi. Ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, disfunktsional oilalardagi bolalarga yordam ko'rsatishda kompleks yondashuv, multi-agentlik hamkorligi va oilaga yo'naltirilgan individual dasturlar asosida tashkil etilgan amaliy ishlar bu kabi oilalar bilan ishlashda ijobiy natijalar berishi isbotlangan. Jumladan, AQSh va Yevropa davlatlarida joriy etilgan erta aralashuv tizimlari, ota-onalar bilan ishlashga doir maxsus dasturlarning yaratilishi va bolalar uchun reabilitatsiya xizmatlarining tashkil etilishi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi e'tirof etilgan. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlardagi oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus muassasalar tashkil etilgan bo'lib, ularga quyidagi yordam turlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Bular: 1) ota-onalar uchun maxsus kasbiy tayyorgarlik guruhlarini tashkil etish, bandlikka ko'maklashish; 2) ota-onasi kunduzi yoki kechqurun ishlaydigan bolalarni

parvarish qilish; 3) shahar sog'liqni saqlash markazlarida yolg'iz onalar uchun xizmatlarni yaratish; 4) bolalarni oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilish xizmatlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash; 5) mehribonlik uylarini yaratish va nazorat qilish, shuningdek, homiylik ostidagi oilalar bilan ishlash, bolaning ijtimoiy hayotga moslashuvini kuzatish; 6) bolalarning ta'lim olishiga yordam beradigan xizmatlarni rivojlantirish, ota-onalarga uy ishlarida yordam berish va boshqalar [6]. Bu kab tajribalar ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga doir muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu disfunktsional oilalar bilan ishlashga doir bittagina tajribadan misol hisoblanadi. Vaholanki, disfunktsional oilalar bilan ishlash tizimini takomillashtirishda bu kabi oilalardagi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muammosini tizimli, kompleks va qiyosiy yondashuv asosida tahlil etishni, uning normativ-huquqiy asoslarini o'rganishni, milliy-mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar va pedagogik-psixologik xizmatlarning amaliy tajribalarini o'rganishni talab etadi. Masalan, qiyosiy tahlil orqali ilg'or xorijiy mamlakatlarda disfunktsional oilalardagi bolalar bilan ishlashning samarali modellarini (erta aralashuv, multidisiplinar yondashuv, ota-onalar bilan hamkorlik strategiyalari) aniqlashtirish asnosida bu boradagi ilg'or va milliy mentalitetimiz va sharoitimizga mos holda maqsadga muvofiq yurtimizdagi ta'lim tizimi va ijtimoiy himoya tizimi sharoitiga moslashtirish yo'llarini yanada takomillashtirish lozim.

Asosiy natijalar. Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida disfunktsional oilalardagi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishni takozo etayotgan ilmiy-pedagogik muammolarning biri ekanligini ko'rsatadi. Tahlillar jarayonida disfunktsional oilalarda tarbiyalanayotgan ijtimoiy hayotga moslashishi va ijtimoiylashuvda muammolari bo'lgan va pedagogik qo'llab-quvvatlashga muhtoji bo'lgan bolalarni erta aniqlash va ularning muammolarini profilaktika qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilar, sinf rahbarlari va psixologlarning bu kabi bolalar bilan ishlashiga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ularning ish uslublari va metodik yondashuvlarini yanada takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj mavjud. Bu boradagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik holatlarda bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish muammosi keskinlashgandan keyin ko'rsatilayotgani qayd etilmoqda. Bu esa o'z navbatida yurtimizda joriy etilgan ta'lim muassasalari, oilalar, sog'liqni saqlash tizimi, ichki ishlar va mahalla institutlari o'rtasidagi hamkorlik tizimini ilmiy asosda yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida disfunktsional oilalardagi bolalarga kompleks yordam ko'rsatish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Olingan natijalar xalqaro ilmiy tadqiqotlar xulosalari bilan qiyoslanganda, disfunktsional oilalardagi bolalar bilan ishlashda uchrayotgan muammolar ko'plab mamlakatlar uchun umumiy ekanini ko'rsatadi. Xususan, rivojlangan davlatlarda olib borilgan tadqiqotlarda bu kabi oilalardagi muhitni yaxshilashga doir erta aralashuv va multidisiplinar yondashuv bolalarning ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari yurtimiz

sharoitida ushbu yondashuvlarning ijobiy tomonlarini o'rganib va joriy etishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Xorijiy tajribadan farqli ravishda, milliy amaliyotda bolaga ko'rsatiladigan yordam ko'pincha alohida muassasalar doirasida amalga oshiriladi va oilalar, ayniqsa ota-onalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish lozim. Bu esa bolalarning muammolarining chuqurlashuvining va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari disfunktsional oilalardagi bolalar bilan ishlashda kompleks va oilaga yo'naltirilgan yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot disfunktsional oilalardagi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoji yuqori

ekanini tasdiqladi. Bunday oilaviy muhit bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati va jamiyatga moslashuviga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda mavjud ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimida erta aniqlash, profilaktika va muassasalararo hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil kompleks va multidisiplinar yondashuvlarning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Olingan xulosalar ijtimoiy pedagogika va ta'lim tizimi uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, disfunktsional oilalardagi bolalar bilan ishlash tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. <https://lex.uz/docs/6445147>
2. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'RQ-139-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdegi «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi O'RQ-996-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi «Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-185-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi «2026-2030-yillarga mo'ljallangan bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-256-sonli Farmoni.
6. Корнюшина Р.В. Зарубежный опыт социальной работы: учеб. пособие. – Владивосток: Дальневосточный университет, 2004.
7. Шилов И.Ю. Фамилистика. Психология – и педагогика семьи: Практикум. – Санкт-Петербург: «Петрополис», 2000.